



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 24-34 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TEMIRYO'L TRANSPORT KORXONALARIDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARIDAN OLINADIGAN DAROMADLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



Mukhamedova Sitora Ilhomovna

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

E-mail: Sitamukhamedova1210@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada temiryo'l transport korxonalarida yuk va yo'lovchi tashish faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobining yuritilishi, mavjud amaliyot, hisob tizimidagi muammolar va ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Daromadlarni aniqlik bilan hisobga olish, moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta'minlash va hisob jarayonini avtomatlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy buxgalteriya texnologiyalari va raqamlashtirish asosida hisob tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari temiryo'l transportida moliyaviy boshqaruvi optimallashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Temiryo'l transporti, yuk tashish, yo'lovchi tashish, daromadlar hisobi, buxgalteriya tizimi, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, moliyaviy boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности ведения учета доходов от перевозки грузов и пассажиров в железнодорожных транспортных организациях. Анализируется существующая практика, проблемы учета и возможности их усовершенствования. Особое внимание уделено автоматизации учетного процесса, повышению достоверности финансовой информации и использованию цифровых технологий для повышения экономической эффективности деятельности предприятий. Предложены практические рекомендации по улучшению системы учета и управлению доходами в железнодорожном транспорте.

Ключевые слова: Железнодорожный транспорт, грузовые перевозки, пассажирские перевозки, учет доходов, бухгалтерская система, цифровизация, автоматизация, финансовое управление, экономическая эффективность.

Annotation. This article explores the accounting practices of revenues generated from freight and passenger transportation in railway transport enterprises. The current procedures, key accounting challenges, and opportunities for improvement are analyzed. Special attention is given to enhancing the reliability of financial data, automating accounting processes, and implementing digital technologies to increase economic efficiency. The study proposes practical recommendations for optimizing revenue accounting and financial management in the railway sector.

Keywords: Railway transport, freight transportation, passenger transportation, revenue accounting, accounting system, digitalization, automation, financial management, economic efficiency.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida transport va logistika tizimining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, temiryo'l transporti yuk va yo'lovchilarni uzoq masofalarga xavfsiz, tejamkor va tezkor yetkazib berish imkoniyatlari bilan milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Temiryo'l tizimi orqali yillik yuk aylanmasining katta qismi hamda millionlab yo'lovchilarning harakati ta'minlanadi. Shu bois, ushbu tarmoqda daromadlarning to'g'ri va shaffof hisobga olinishi, buxgalteriya hisobining zamonaviy talablar asosida yuritilishi hamda ularni takomillashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Temiryo'l korxonalarida yuk va yo'lovchi tashishdan olinadigan daromadlar asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Mazkur daromadlarning to'g'ri hisobga olinishi nafaqat ichki moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki investitsion jozibadorlikni oshirish, xarajatlarni oqilona rejalashtirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, hisobot jarayonlarida uchrayotgan ayrim kamchiliklar — ya'ni avtomatlashtirish darajasining pastligi, hisob yuritishda eski usullarning saqlanib qolishi, raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani — tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada temiryo'l transport korxonalarida yuk va yo'lovchi tashish faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobining yuritilishiga doir amaliyotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, hisob yuritishning zamonaviy yondashuvlari asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. temiryo'l transporti sohasida yuk va yo'lovchi tashishdan olingan daromadlar hisobining yuritilishi, buxgalteriya tizimi va moliyaviy nazorat masalalari iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi hamda transport menejmenti sohalarida faoliyat yuritayotgan ko'plab olim va mutaxassislar e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar daromadlarni aniqlik bilan hisobga olish, ularni tahlil qilish va samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar, jumladan A. Yo'ldoshev, Z. Xodjayeva, M. Raximovlarning ishlarida transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi, logistik tizimlar orqali daromadlarni oshirish imkoniyatlari va buxgalteriya hisobining muhim jihatlari chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, Z. Yusupov temiryo'l korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, xarajatlar va daromadlar nisbatini optimallashtirish bo'yicha muhim ilmiy tavsiyalar bergan. [5, 6, 7, 8, 9]

Xorijiy adabiyotlarda esa, temiryo'l transportida moliyaviy oqimlar va daromadlarni hisobga olishda avtomatlashtirilgan tizimlar, ERP va CRM platformalari asosida yuritiladigan raqamli buxgalteriya tizimlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Richard Hope, Peter W. Abelson, Jean-Paul Rodrigue kabi mualliflarning ishlari temiryo'l transporti iqtisodiyoti, tarif siyosati va daromadlar prognozi bo'yicha fundamental nazariy asoslarni beradi. Ular transport korxonalarida moliyaviy nazoratning roli, xarajatlarning rentabelligi va foyda ko'rsatkichlarining baholanishi kabi masalalarni yoritgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan chiqarilgan hisobotlar, amaliy tavsiyalar va metodik qo'llanmalar ham temiryo'l korxonalarida daromadlar hisobini

takomillashtirish bo'yicha muhim axborot manbalaridir. Xususan, "Temiryo'l transporti faoliyatini raqamlashtirish strategiyasi", "Transport-logistika xizmatlarini rivojlantirish konsepsiyasi" kabi rasmiy hujjatlar mavzuning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda yuk va yo'lovchi tashishdan olingan daromadlarning aniq hisobga olinishi, raqamli yechimlar orqali avtomatlashtirilishi, moliyaviy axborotlarning shaffofligi va hisob tizimining takomillashuvi kabi masalalarda ayrim bo'shliqlar mavjud. Bu holat ushbu maqolada mavzuni yanada chuqurroq tahlil qilish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. [1, 2, 3, 4]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot temiryo'l transport korxonalarida yuk va yo'lovchi tashish faoliyatidan olinadigan daromadlarning hisobga olinishi, ularning iqtisodiy tahlili hamda buxgalteriya amaliyotini takomillashtirish masalalarini qamrab oladi. Tadqiqot davomida nazariy, amaliy va statistik yondashuvlar uyg'un holda qo'llanilib, mavjud muammo va imkoniyatlar tizimli o'rganildi. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlari quyidagilardan iborat:

— Tizimli yondashuv – temiryo'l transport korxonalari faoliyati kompleks tarzda o'rganilib, daromadlar shakllanishi, buxgalteriya hisobi, tarif siyosati va moliyaviy boshqaruv o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilindi;

— Taqqoslash va solishtirma tahlil – O'zbekiston va ayrim xorijiy davlatlar (Rossiya, Germaniya, Xitoy) temiryo'l korxonalaridagi daromadlar hisob yuritish amaliyoti o'rtasida farqlar aniqlanib, samarali tajribalar baholandi;

— Statistik tahlilda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi va boshqa rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida yuk va yo'lovchi tashishdan olingan daromadlar dinamikasi, tuzilmasi va o'sish tendensiyalari tahlil qilindi;

— Ekspert baholash usulida temiryo'l sohasida faoliyat yuritayotgan buxgalterlar, iqtisodchilar va menejerlar fikrlari asosida amaldagi hisob yuritish tizimidagi muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari aniqlab olindi;

— Normativ-huquqiy tahlilda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, VM qarorlari, buxgalteriya standartlari va temiryo'l transportiga oid me'yoriy hujjatlar o'rganilib, ularning hisob yuritish amaliyotiga ta'siri tahlil qilindi. [2, 3, 13, 14]

Tadqiqotda shuningdek induktiv va deduktiv tahlil metodlari orqali nazariy xulosalardan amaliy tavsiyalarga, amaliy holatlardan umumlashtirilgan ilmiy natijalarga o'tish tamoyiliga amal qilindi. Buning natijasida, mavjud muammolar asosli ravishda tahlil qilinib, ularni yechishga qaratilgan aniq va hayotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida temiryo'l transport korxonalarining buxgalteriya hisobida yuk va yo'lovchi tashishdan olinadigan daromadlarni aks ettirish amaliyoti o'rganildi. «O'zbekiston temir yo'llari» AJ va uning hududiy filiallari misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, daromadlar hisobi odatda an'anaviy usullarga asoslanadi, raqamlashtirish darajasi esa ayrim jarayonlargagina tatbiq etilgan. So'nggi yillarda yuk tashish xizmatlaridan tushgan daromadlar umumiy transport daromadlarining 70–75% ni tashkil etmoqda, yo'lovchi tashishdan tushgan daromadlar esa 25–30% atrofida. Bu esa yuk tashishga bo'lgan iqtisodiy ehtiyoj yuqoriligidan dalolat beradi. Biroq, xizmatlar narxining qat'iy belgilanishi va ayrim subsidiyalar mavjudligi

ushbu xizmatlar bo'yicha daromadning to'liq iqtisodiy salohiyatini ochishga to'sqinlik qilmoqda. Tahlillar davomida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

- Daromadlar bo'yicha aniq tahliliy hisob yuritilmasligi, ya'ni yuk va yo'lovchi turlariga, yo'nalishlarga, mavsumiylikka qarab tahlil yetarli emas;
- Hisobotlar ko'pincha qo'lda kiritiladigan yoki faqat ichki foydalanishga mo'ljallangan ko'rinishda bo'lib, raqamli formatlarga to'liq o'tkazilmagan;
- Avtomatlashtirilgan tizimlar mavjud bo'lsa-da, ular barcha filiallarda bir xil ishlamaydi, ya'ni integratsiya darajasi past;
- Daromadlar hisobi moliyaviy va boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan yetarlicha uyg'unlashtirilmagan.

1-jadval

2020-2024 yillar uchun "O'zbekiston temir yo'llari" Ajning statistik ma'lumotlari tahlili¹

№	Asosiy ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yilning 2020 yildan farqi (+/-)
1	Jo'natilgan yuk, ming tonna	70 648,5	72 025,5	73 363,7	73 674,8	73 964,3	+3 315,8
2	Yuk aylanmasi, mln.tn-km	23 632,2	24 618,8	24 989,3	27 080,7	27 465,2	+3 833
3	Tashilgan yuklar, ming tonna	96 020,4	98 874,7	102 282,4	109 411,3	102 678,8	+6 658,4
4	Yo'lovchi aylanmasi, mln yo'lovchi-km	1 794,9	3 130,2	3 549,4	3 903,7	4 072,9	+2 278
5	Jo'natilgan yo'lovchilar, ming yo'lovchi	6 155,3	7 949,4	9 012,6	9 626,5	9 830,0	+3 674,7
6	Tashilgan yo'lovchilar, ming yo'lovchi	6 279,0	7 968,2	9 139,2	9 809,7	10 010,2	+ 3 731,2

Ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda temiryo'l transportida yuk va yo'lovchi tashish hajmi va aylanmasida ijobiy dinamikalar kuzatilmoqda. Jo'natilgan yuk hajmi (ming tonna) 2020 yilda 70 648,5 ming tonnadan 2024 yilda 73 964,3 ming tonnagacha o'sib, bu ko'rsatkich o'rtacha yillik o'sish sur'atining mavjudligini ko'rsatadi. Bu temiryo'l tizimining yuk tashish salohiyati va faoliyat ko'rsatkichlarining barqarorligini bildiradi.

¹ Muallif ishlanmasi; jadval "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Davlat statistika qo'mitasi va Moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlarining so'ngi 5 yillik ma'lumotlari asosida tuzildi

Yuk aylanmasi (mln tonna-kilometr) ham o'sishda davom etib, 2020 yilda 23 632,2 mln tn-km dan 2024 yilda 27 465,2 mln tn-km ga yetdi. Bu yuk tashish hajmi va uzoqligining ortishini, ya'ni temiryo'l transportining yuklarni uzoq masofalarga samarali tashishga qodir ekanligini ko'rsatadi.

Tashilgan yuklar miqdori (ming tonna) 2023 yilda eng yuqori — 109 411,3 ming tonnaga yetgan, 2024 yilda esa biroz pasayib, 102 678,8 ming tonnani tashkil qilgan. Bu holat, ehtimol, iqtisodiy va tashish sohasidagi o'zgarishlar, transport oqimlarining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yo'lovchi tashish sohasida ham sezilarli o'sishlar mavjud. Yo'lovchi aylanmasi (mln yo'lovchi-km) 2020 yilda 1 794,9 mln yo'lovchi-km dan 2024 yilda 4 072,9 mln yo'lovchi-km ga qadar ko'paygan. Bu yo'lovchi tashish hajmi va uzoqligining o'sishiga, temiryo'l yo'lovchi transportining ommaviyligi va qulayligining oshishiga ishora qiladi.

Jo'natilgan yo'lovchilar soni (ming yo'lovchi) 6 155,3 mingdan 9 830,0 mingga o'sgan, Tashilgan yo'lovchilar soni esa 6 279,0 mingdan 10 010,2 mingga yetgan. Bu o'sish yo'lovchi oqimining barqaror kengayishidan dalolat beradi va xizmat sifatining yaxshilanishi natijasida temiryo'l transportiga bo'lgan talabning oshganini ko'rsatadi.

Ushbu ko'rsatkichlar temiryo'l transport korxonalarining yuk va yo'lovchi tashish sohasida o'sish sur'atlarini, faoliyatning kengayishini va transport tizimining samaradorligini aks ettiradi. Yuk tashish hajmi va aylanmasining o'sishi iqtisodiyotdagi faollikning ko'rsatkichidir, yo'lovchi tashish hajmidagi ortish esa aholi mobilitetining oshishini va transport xizmatlariga talabning o'sishini bildiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, temiryo'l transportida daromadlar hisobi va boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish, shu jumladan, xizmat sifatini oshirish va tashish hajmlarini samarali boshqarish zarurati mavjud. Bu esa temiryo'l sohasida raqamli va moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish, yangi texnologiyalarni keng qo'llashni talab qiladi.

2-jadval

Yuk va yo'lovchi tashishdan daromadlarning yillik statistik ko'rsatkichlari (mlrd so'm)²

№	Yil	Yuk tashishdan daromad	Yo'lovchi tashishdan daromad	Jami daromad
1	2020	8 200	2 900	11 100
2	2021	9 450	3 100	12 550
3	2022	10 700	3 350	14 050
4	2023	11 850	3 650	15 500
5	2024	13 200	3 900	17 100

So'nggi besh yil ichida temiryo'l transport korxonalarining yuk va yo'lovchi tashishdan olinadigan daromadlari barqaror o'sish sur'atida bo'lib, jami daromad 2020 yildagi 11,1 trillion so'mdan 2024 yilga kelib 17,1 trillion so'mgacha yetdi. Yuk tashishdan olinadigan daromadlar asosiy hajmni tashkil qilsa-da, yo'lovchi tashishdan olinadigan

² Muallif ishlanmasi; jadval "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Davlat statistika qo'mitasi va Moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlarining so'ngi 5 yillik ma'lumotlari asosida tuzildi

daromadlarda ham sezilarli o'sish kuzatildi. Bu o'z navbatida transport xizmatlari hajmining kengayishi va samaradorlikning oshishidan dalolat beradi.

3-jadval

**Xorijiy davlatlar bilan taqqoslash: temiryo'l transport korxonalarida
daromadlarni hisobga olish tizimlari³**

№	Davlat	Hisob yuritish tizimi	Tahliliy hisobotlar mavjudligi	Buxgalteriya va boshqaruv hisobi integratsiyasi
1	O'zbekiston	An'anaviy va qisman avtomatlashtirilgan	Cheklangan	Qisman
2	Rossiya	ERP (SAP) tizimi	Yaxshi	To'liq
3	Germaniya	To'liq raqamli, IFRS asosida	Yuqori	To'liq
4	Xitoy	Avtomatlashtirilgan, AI integratsiyalashgan	Yuqori	To'liq

«AUTOMAT-DAVR», «UZRAILPASS» kabi axborot tizimlari joriy etilgan bo'lsa-da, ular asosan chiptalar sotilishi va tashish nazorati uchun xizmat qiladi. Daromadlarning analitik tahlili, moliyaviy oqimlarni prognozlash va operativ boshqaruvga oid qulay interfeyslar hali yetarli emas. Bu esa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda vaqt va aniqlik jihatidan kechikishlarga olib keladi. Tahlillar davomida quyidagi asosiy natijalarni ko'rib chiqish mumkin:

— Temiryo'l transporti korxonalarida daromadlar hisobi bo'yicha yagona integratsiyalashgan raqamli tizim zarurati yuqori;

— Hisob yuritishda avtomatlashtirishni kengaytirish, ayniqsa yo'nalishlar, tariflar va mijozlar guruhiga qarab analitik hisobotlar tuzish imkoniyatlarini yaratish muhim;

— Moliyaviy nazoratni kuchaytirish va har bir tashish xizmatidan tushayotgan daromadni alohida tahlil qilish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

4-jadval

**Temiryo'l transportida daromadlar hisobini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy
hujjatlar tahlili⁴**

№	Normativ-huquqiy hujjat nomi	Asosiy mazmuni	Tadqiqot mavzusi bilan bog'liqligi	Amalga ta'siri
1	O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (2016 yil)	Buxgalteriya hisobi yuritish tartibi, moliyaviy hisobot shakllari	Daromadlarning shakllanishi va e'tirof etilishi tartibini belgilaydi	Yuqori
2	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ustavi va	Tarif siyosati, ichki moliyaviy tartiblar,	Daromadlarni hisoblash va tarif	Yuqori

³ Muallif ishlanmasi: jadvalda O'zbekistonning temiryo'l transportida daromadlarni hisobga olish va buxgalteriya hisobini yuritish amaliyoti Rossiya, Germaniya va Xitoyning zamonaviy tizimlari bilan solishtirildi. Ma'lumotlar ekspert so'rovnomalari, ilmiy manbalar hamda ushbu davlatlarning transport sohasidagi amaliy tajribalari asosida yig'ildi.

⁴ Muallif ishlanmasi

	ichki reglamentlari	hisobot mexanizmi	belgilash jarayonlari	
3	PQ-4611-sonli Prezident qarori (2020 yil)	Temiryo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish choralari	Hisob yuritishni raqamlashtirish, daromadlarni oshirish	O'rta-yuqori
4	PQ-60-sonli Prezident qarori (2022-2026 yillar strategiyasi)	Transport-logistika tizimini raqobatbardosh qilish	Hisob-kitobda innovatsion texnologiyalar joriy etilishi	Yuqori
5	Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (MBHS)	Hisobot shakllari va buxgalteriya tamoyillari	Temiryo'l korxonalarining moliyaviy hisobot tuzish usuli	Yuqori
6	Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari (IFRS)	Daromadlarni xalqaro talablarga mos hisobga olish	Kelajakda hisobotlarni xalqaro darajaga olib chiqish	O'rta
7	Soliq kodeksi (amaldagi tahrir)	Daromad soliqlari, QQS, hisobot yuritish tartibi	Soliqqa tortiladigan daromadlar va hisob yuritish mosligi	Yuqori
8	Transport vazirligi yo'riqnomalari va metodikasi	Tashish xizmatlarining bahosi, subsidiyalar tartibi	Daromadlar strukturasiga davlat aralashuvi, moliyaviy oqimlar	O'rta

Tahlil natijasida ko'rinadiki, temiryo'l transportida daromadlar hisobini yuritish qator normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ularning aksariyati yuqori darajadagi amaliy ta'sirga ega bo'lib, hisob-kitoblarning to'g'riligi, ochiqqligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi bo'yicha qonunlar, milliy va xalqaro standartlar asosiy omillar hisoblanadi. Shuningdek, prezident qarorlari va davlat strategiyalari orqali sohada raqamlashtirish va innovatsiyalar jadal tatbiq etilmoqda.

5-jadval

Temiryo'l sohasida hisob yuritish tizimi bo'yicha ekspert bahosi asosida tahlil⁵

№	Ekspertlar guruhi	Aniqlangan muammo	Muammoning sababi	Taklif etilgan takomillashtirish yo'nalishi
1	Buxgalterlar	Daromadlarning vaqtida va to'liq hisobga olinmasligi	Qog'ozbozlik, axborot tizimlarining yetarli darajada integratsiyalashmag anligi	Avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlarini keng joriy etish
		Yo'lovchi	Normativ bazaning	Yagona hisoblash

⁵ Muallif ishlanmasi

		tashishdan tushadigan daromadlar noaniq va turlicha hisoblanadi	eski ekani, amaliyotda yagona yondashuv yo'q	metodikasini ishlab chiqish va normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash
2	Iqtisodchilar	Tariflar iqtisodiy asoslantirilmagan	Haqiqiy xarajatlar va rentabellik hisobga olinmaydi	Tarif siyosatini tahliliy asosda yangilash va tariflar monitoringini joriy etish
		Daromadlar va xarajatlar tahlili noto'liq yoki yuzaki olib boriladi	Tahliliy hisobotlarning cheklanganligi	Davriy asosda moliyaviy tahlil bo'yicha vizual va grafik shakldagi hisobotlarni joriy qilish
3	Menejerlar	Hisobotlar kechiktirilgan holda taqdim etiladi	Raqamlashtirish darajasining pastligi	Operativ hisobotlarni onlayn tarzda olish uchun elektron tizim yaratish
		Tushumlar va xizmat turlari bo'yicha daromadlar ajratilmagan	Moddiy oqimlar ustidan tizimli monitoring mavjud emas	Daromadlar strukturasini xizmat turlari kesimida tafsilotli yuritish
4	Buxgalterlar va iqtisodchilar	Xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlar tuzilmaydi	Xodimlar malakasi past, o'quv dasturlar yetarli emas	Xalqaro buxgalteriya va moliyaviy hisobot bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslarini joriy etish

Ekspertlar fikriga ko'ra, temiryo'l transport korxonalarida amaldagi buxgalteriya hisob yuritish tizimi bir nechta muammolarni o'z ichiga oladi — eng muhimlari hisob-kitoblarning qo'lda yuritilishi, yagona metodikaning yo'qligi, tarif siyosatining asoslantirilmaganligi va statistik tahlilning yetarli emasligidir. Takomillashtirish yo'nalishlari esa raqamlashtirish, avtomatlashtirish, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash va xodimlar malakasini oshirishga qaratilgan.

6-jadval

**Temiryo'l transportida daromadlar hisobini takomillashtirishga oid
SWOT tahlili⁶**

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlar
✓ Temiryo'l transportining yuk va	✓ Daromadlar hisobining

⁶ Muallif ishlanmasi

yo'lovchi tashishda iqtisodiy tejamkorligi va ishonchliligi; ✓ «O'zbekiston temir yo'llari» AJ kabi yirik tizimli tashkilotlar faoliyat yuritayotganligi; ✓ Raqamlashtirish bo'yicha dastlabki platformalarning (masalan, UZRAILPASS) mavjudligi; ✓ Yo'lovchi oqimining barqarorligi va yuk tashishga bo'lgan yuqori talab.	avtomatlashtirilmagan, qo'lda yuritiladigan tizimlarga qaramligi; ✓ Analitik hisobotlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi; ✓ Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi o'rtasida uzviy integratsiyaning yo'qligi; ✓ Kadrlar malakasining zamonaviy hisob texnologiyalariga mos emasligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
✓ Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini joriy etish imkoniyati; ✓ Moliyaviy tahlil asosida boshqaruvni optimallashtirish, foydani maksimal darajaga yetkazish; ✓ Xalqaro standartlarga mos buxgalteriya va audit tizimlarini qo'llash orqali investorlar ishonchini oshirish; ✓ Xorijiy temiryo'l kompaniyalari bilan tajriba almashish va innovatsiyalarni tatbiq etish.	✓ Raqobatning kuchayishi – avtomobil va havo transporti orqali yuk/yo'lovchi tashish hajmlarining oshib borishi; ✓ Yangi tizimlarni joriy etishda moliyaviy va texnik resurslarning yetarli emasligi; ✓ Normativ-huquqiy bazaning raqamlashtirish tezligiga mos holda yangilanmasligi; ✓ Ichki byurokratiya va qarorlar qabul qilishdagi sustkashliklar.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, temiryo'l transportida daromadlar hisobi sohasida mavjud kuchli jihatlar va rivojlanish imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, ular to'liq amalga oshirilishi uchun zaif tomonlar va tashqi tahdidlarni bartaraf etish muhim. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan, shaffof va tezkor hisob tizimini yo'lga qo'yish orqali ushbu sohaning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, temiryo'l transport korxonalarida yuk va yo'lovchi tashishdan tushadigan daromadlar umumiy moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Biroq, mavjud hisob tizimining ba'zi jihatlari zamonaviy talablar va raqamli iqtisodiyot sharoitlariga to'liq mos kelmayapti. Ayniqsa, daromadlar hisobi jarayonida aniqlik, tezkorlik, avtomatlashtirish va analitik tahlilning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bu sohadagi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan, quyidagi asosiy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, temiryo'l transport korxonalarida yuk va yo'lovchi tashishdan olinadigan daromadlarni hisobga olish jarayonini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish zarur. Buning uchun yagona elektron buxgalteriya platformasini ishlab chiqish, mavjud axborot tizimlarini integratsiyalash va real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish lozim.

Ikkinchidan, daromadlar bo'yicha analitik hisobotlar tizimini takomillashtirish zarur. Bu hisobotlarda xizmat turlari, yo'nalishlar, mijoz segmentlari va mavsumiylik omillari bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlar aks ettirilishi kerak. Ushbu yondashuv menejment qarorlarini tezkor va asosli qabul qilishga yordam beradi.

Uchinchidan, hisob yuritish va raqamli moliyaviy boshqaruv sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Transport buxgalteriyasi bo'yicha zamonaviy dasturlarni chuqur biladigan mutaxassislar tayyorlash va ularni uzluksiz qayta tayyorlash mexanizmini yaratish dolzarb masaladir.

To'rtinchidan, temiryo'l transportida daromadlar hisobi bo'yicha mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro tajribaga asoslangan holda yangilash zarur. Ayniqsa, raqamli hisob yuritish, elektron audit va avtomatik nazorat tizimlarini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash lozim.

Beshinchidan, ichki moliyaviy nazorat va audit tizimlarini kuchaytirish lozim. Daromadlar harakatini doimiy monitoring qilish, shubhali va samarasiz moliyaviy operatsiyalarni erta aniqlovchi indikatorlar tizimini joriy etish orqali buxgalteriya axborotlarining aniqligi va shaffofligini oshirish mumkin.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga tatbiqi orqali temiryo'l transport korxonalarida moliyaviy shaffoflik, samarali boshqaruv va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Bu esa butun transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish va investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Temiryo'l transporti tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarori. — Toshkent, 2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. "Temiryo'l transporti faoliyatining 2020–2024 yillardagi rivojlanish strategiyasi". — Toshkent, 2020 y.
3. "O'zbekiston temir yo'llari" AJning yillik hisobotlari (2020–2024 yillar). — www.railway.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Temiryo'l transportida buxgalteriya hisobining yuritilishiga oid metodik ko'rsatmalar. — Toshkent, 2023 yil.
5. Nazarov B., Karimov N. "Transport iqtisodiyoti asoslari". — Toshkent: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti 2021 yil.
6. Yo'ldoshev Sh. "Temiryo'l transportida menejment va iqtisodiyot". — Toshkent: "Ilm Ziya" nashriyoti 2022 yil.
7. Murodov S. "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil". — Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti 2020 yil.
8. Gulyamov S.S. "Innovatsion rivojlanish sharoitida transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №6. 2021 yil.
9. Djalilov M.R., Kadirov, A.B. "Transport xizmatlari sohasida raqamli boshqaruv va hisob tizimlari". // Ilmiy-texnik jurnal, №4. 2022 yil.
10. Railway Transport and Innovation: International Review. — Paris: OECD Publishing. 2023 yil.

11. Kolesnikov A.V. "Buxgalterskiy uchët v transportnoy otrasli". — Moskva: INFRA-M. 2021 yil.
12. Zhang L., Liu H. "Railway Revenue Accounting in Modern China: Practices and Reforms". // Journal of Transport Economics and Policy, Vol. 56(1), pp. 45–62. 2022 yil.
13. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
14. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

